ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti



13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№1
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Elektron nashr. 164 sahifa,
5-yanvar, 2026-yil.



**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E'zoza Gapirjanovna –** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

***TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI***
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)***
***Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
***G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Doniyorov S. M. –"Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent***



Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ
Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
*Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor*
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali
26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: **№136361**

# MUNDARIJA

Talabalarda tolerantlikni shakllantirish zarurati va samaradorligi ... 28
Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Muhandislik grafikasi bo'yicha raqamli kompetensiyalarni shakllantirishda grafik dasturlardan foydalanish metodikasini yaratish ... 34
Axmatova Asila Akmaljon qizi

Investigation on the Efficacy of Pedagogical Approaches in Virtual Learning ... 37
Burkhonova Zarafruz Qobilovna, Makhmudov Shaxboz Muzzafarovich

The Role of Input And Interaction in Second Language Acquisition ... 40
Dilorom Poyonova

Muhandislik yo'nalishida kartografiya fanini integratsiyalashgan holda o'qitish ... 45
Kazakbayeva Muxabbat Turabayevna

Incorporation of Moocs Into the Digital Educational Framework for the Development of Professional Speech Culture ... 49
Kudrat-Zoda Kamola Alisherovna

Pedagogical Strategies for Enhancing Students' Creative Thinking Throughout the Learning Process ... 52
Makhmudova Ugiloy Baxtiyarovna

Kognitiv yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning media savodxonligini rivojlantirish ... 57
Mirzayeva Mayramxon Zaynobiddinovna

Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning sun'iy intellekt savodxonligini rivojlantirish ... 61
Mirzayeva Ziyoda Uktamjonovna

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tanqidiy fikrlashga o'rgatish ... 65
Qurbonboyeva Gulnoza Mahmud qizi

An Online Service that Integrates Up-To-Date Content From Well-Known Mooc Platforms ... 68
Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Abdurahmonova Osiyo Jahongirovna

The Fourth Phase of Distance Education: Integrated Technologies and Moocs ... 71
Rahimberdiyev Rustam Abdunasirovich, TaranenkoTatyana Viktorovna

Gamifikatsiya orqali iqtidorli o'quvchilarning o'quv motivatsiyasini oshirish ... 74
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Xaytbayeva Malika Qobil qizi

Boshlang'ich ta'lim fanlarini didaktik o'yinlar orqali tushuntirish ... 77
Rustamova Manzura Mirkamolovna, Shomaxsudova Diyora Dilshod qizi

O'smirlar orasida alkogolizm, giyohvandlik va toksikomaniya profilaktikasi ... 80
Sh. F. Mustafayeva

Educational Physics Experiments: Methods and Didactic Strategies for Developing Critical Thinking in Students ... 85
Turayev Alimjan Bahriddinovich

The Problems of Remote Learning Technology and Global Trends in University Education Development ... 88
Tursunov Begzod Sherzodovich, Shukurova Madina

A Case Study of Humanities Disciplines Using Massive Open Online Courses as a Resource for Blended Learning ... 91
Tursunov Begzod Sherzodovich, Eshkabilov Kodirali Davlatmuratovich

Modern Education and Training Practices for Future Dentists ... 94
Turumova Marjona Bahodirovna

Kommunikativ yondashuv asosida nutqiy kompetensiyani shakllantirish ... 98
Tuxtayeva Mehriyo Shavkatovna

Maktabgacha ta'lim jarayonida mutaxassislik fanlarini o'qitishda zamonaviy pedagogik yondashuvlar: amaliy muammolar va ularning innovatsion yechimlari ........ 102
**Xabibulayeva Shaxrizoda O'ktam qizi**

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi talabalarda nutq o'stirish darslari orqali Soft Skills ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy pedagogik psixologik asoslari ........ 106
**Xoldarova Mubina Qudratbek qizi**

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida rivojlantiruvchi muhit va uning turlari ........ 110
**Xolmirzayeva O'g'iloy Murotali qizi**

Развитие компетенций студентов-биологов в изучении языков ........ 114
**Абдуллаева Нигора Курбановна**

Формирование интереса и повышение эффективности школьного урока физической культуры ...... 118
**Мукимов Олим Эргашевич**

Incorporation of Massive Open Online Courses Into the Higher Education Framework ........ 122
**Rakhimberdiyev Rustam Abdunasirovich, Nasrullayev Javlonbek Tal'atjonovich**

Совершенствование инновационной методики социально-педагогической деятельности будущих педагогов в полилингвальной среде с использованием искусственного интеллекта ........ 125
**Хужаниязова Гузаль Юлдашевна**

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kreativ faoliyatini xalq og'zaki ijodi asosida rivojlantirish ........ 130
**Abduraximova Muxabbat Allayevna**

Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'rganiladigan nostandart masalalar ........ 133
**Karimova Kunduz Ruzibayevna, Yo'ldosheva Tojigul Ulug'bek qizi**

Video-marketingning iste'molchilar jalb qilinishiga ta'siri: Tiktok va Youtube misolida........ 138
**Rustamova Ma'mura Asqar qizi**

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kognitiv jarayonlarini diagnostika qilish ........ 141
**Shorustamboyeva Shahnoza Ulug'bekovna**

The use of Visualization Technology as a New Trend in Teaching the English Language ........ 144
**Tursunoy Ortiqova**

Didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlili........ 149
**Xolbayeva Dildora Azizovna, Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna**

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biokimyo fanini o'qitishda work-based learning metodikasini qo'llash .. 153
**Mamadaliyeva Zarina Raxmat qizi**

Bo'lajak shifokorlarni tibbiy amaliyotga tayyorlash metodikasini takomillashtirish........ 156
**Murtazayeva Nasiba Komiljonovna**

Autizm spektri buzilishi bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'limni tashkil etish ........ 159
**Xusnidinova Saodat**

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# DIDAKTIK DRAMA ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA NARRATIV YONDASHUVNING ASOSIY TUSHUNCHALARI TAHLILI

Xolbayeva Dildora Azizovna
Angren universiteti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrasi o‘qituvchisi

Sadiyeva Shaxnoza Xusanovna
Angren universiteti direktori

**Annotatsiya:** Maqolada oliy ta’lim jarayonida talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda didaktik drama metodidan foydalanish hamda narrativ yondashuvning asosiy tushunchalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda didaktik drama va narrativ yondashuvning nazariy asoslari ochib berilib, ularning talabalarning kasbiy fikrlashi, refleksiv kompetensiyalari hamda kasbiy identifikatsiyasini shakllantirishdagi roli yoritiladi. Maqolada amaliy misollar asosida didaktik drama va narrativ metodlarni integratsiyalash orqali ta’lim jarayonini boyitish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** didaktik drama, narrativ yondashuv, kasbiy kompetensiya, kasbiy identifikatsiya, refleksiv kompetensiya, oliy ta’lim o‘qituvchisi.

**Abstract:** This article analyzes the use of the didactic drama method and the core concepts of the narrative approach in the formation of students’ professional competencies within the higher education process. The study reveals the theoretical foundations of didactic drama and the narrative approach, highlighting their role in shaping students’ professional thinking, reflective competencies, and professional identification. Through practical examples, the article demonstrates the potential for enriching the educational process by integrating didactic drama and narrative methods.

**Key words:** didactic drama, narrative approach, professional competence, professional identification, reflective competence, higher education teacher.

**Аннотация:** В статье анализируется использование метода дидактической драмы и основных понятий нарративного подхода в формировании профессиональных компетенций студентов в процессе высшего образования. В исследовании раскрываются теоретические основы дидактической драмы и нарративного подхода, а также их роль в формировании профессионального мышления, рефлексивных компетенций и профессиональной идентификации студентов. На основе практических примеров показаны возможности обогащения образовательного процесса посредством интеграции дидактической драмы и нарративных методов.

**Ключевые слова:** дидактическая драма, нарративный подход, профессиональная компетентность, профессиональная идентификация, рефлексивная компетентность, преподаватель высшей школы.

## KIRISH

Zamonaviy oliy ta’lim tizimida talabaning kasbiy faoliyatga tayyorgarligi faqat nazariy bilimlar bilan emas, balki kasbiy kompetensiyalar bilan belgilanadi. Shu sababli ta’lim jarayonida interaktiv, shaxsga yo‘naltirilgan pedagogik metodlar, jumladan, didaktik drama va narrativ yondashuv keng qo‘llanilmoqda.

Didaktik drama talabaning real kasbiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali amaliy tajriba orttirishini ta’minlasa, narrativ yondashuv ushbu jarayonda shaxsning o‘z tajribasini hikoya shaklida anglash va qayta qurish imkonini beradi. Shu bilan birga, narrativ yondashuv talabaning kasbiy identifikatsiyasi, refleksiv fikrlashi hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Didaktik drama talabaning real kasbiy vaziyatlarni sahnalashtirish orqali amaliy tajriba orttirishini ta’minlasa, narrativ yondashuv ushbu jarayonda shaxsning o‘z tajribasini hikoya shaklida anglash va qayta qurish imkonini beradi. Shu bilan birga, narrativ yondashuv talabaning kasbiy identifikatsiyasi, refleksiv fikrlashi hamda muloqot madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda pedagogika va psixologiya sohalarida innovatsion qarashlardan biri sifatida narrativ yondashuv alohida e'tirof etilmoqda. Narrativ yondashuv (lotincha "narratio" – hikoya, bayon) talabalarning o'z shaxsiy tajribasi, his-tuyg'ulari va kechinmalarini hikoya qilish, voqealarni izchil bayon etish orqali o'rganish jarayonini tashkil etishga asoslangan metodikadir. Ushbu yondashuv orqali ta'lim jarayonida o'quv materiallari hamda kasbiy-hayotiy tajribalar hikoya tarzida o'zlashtiriladi va aks ettiriladi, bu esa bilimlarni yanada chuqurroq anglash imkonini beradi.

Didaktik drama metodikasi ta'lim jarayoniga badiiy, emotsional va interfaol ruh bag'ishlab, talabani o'zini o'qituvchi rolida sinab ko'rishga, hayotiy pedagogik vaziyatlarni sahnalashtirish orqali kasbiy mahoratini mustahkamlashga xizmat qiluvchi samarali vosita hisoblanadi.

Didaktik drama – ta'limiy maqsadlarga xizmat qiluvchi dramatik jarayon bo'lib, unda talabalar ma'lum bir mavzuni faqat tinglovchi yoki kuzatuvchi sifatida emas, balki faol ishtirokchi sifatida o'rganadilar. Natijada ularning bilim, ko'nikma va malakalari real pedagogik vaziyatlarga yaqin sharoitda shakllanadi.

### Didaktik dramaning nazariy asoslari

Didaktik drama – o'quv jarayonida sahnalashtirish, rol ijro etish va muammoli vaziyatlarni jonli tarzda namoyish etish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishga yo'naltirilgan pedagogik metoddir. Ushbu metod quyidagi nazariy g'oyalarga asoslanadi:

- konstruktivizm nazariyasi, unga ko'ra bilim o'quvchi tomonidan faol ishtirok jarayonida yaratiladi;
- faoliyatga asoslangan yondashuv, bunda bilim amaliy faoliyat jarayonida o'zlashtiriladi;
- kommunikativ pedagogika, ta'lim jarayonida muloqot va hamkorlikning muhim o'rin tutishini ta'kidlaydi.

### Didaktik drama vositasida kasbiy mahoratni rivojlantirish metodikasi

Metodik jihatdan didaktik drama quyidagi bosqichlar asosida amalga oshiriladi:

1. **Motivatsion bosqich** – talabalarni mavzuga jalb etish va kasbiy vaziyat bilan tanishtirish.
2. **Rollarni taqsimlash** – talabalar o'qituvchi, o'quvchi, ota-ona yoki boshqa ijtimoiy rollarni ijro etadilar.
3. **Sahnalashtirish jarayoni** – muammoli pedagogik vaziyatni dramatik shaklda hal etish.
4. **Refleksiya va tahlil** – talabalar faoliyati muhokama qilinadi, xulosalar chiqariladi va mavjud kamchiliklar aniqlanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda interfaol pedagogik texnologiyalar, xususan, didaktik drama va narrativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur yondashuvlar ta'lim oluvchilarning bilimni faqat qabul qiluvchi emas, balki uni faol yaratuvchi subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qiladi.

Lingvistik nuqtai nazardan, hikoya muayyan tuzilish va qoidalar asosida quriladi. W. Labov va J. Volteskiylarning ilmiy tadqiqotlarida hikoya oltita asosiy komponentdan iborat ekanligi ko'rsatiladi: abstrakt, yo'nalish, komplikatsiya, kulminatsiya, yechim va yakun. Ushbu model hikoyaning grammatik yoki sintaktik tuzilmasidan ko'ra, uning kommunikativ vazifasiga, ya'ni tinglovchi e'tiborini jalb etish, voqea rivojini taqdim etish va mazmuniy yakun berishga urg'u qaratadi. Hikoyaning muhim jihatlaridan yana biri uning matn bog'liqligi va mazmun uzviyligidir. Matn bog'liqligi uning grammatik jihatdan o'zaro bog'liqligini anglatadi, mazmun uzviyligi esa voqealar orasidagi mantiqiy bog'lanish mavjudligini ifodalaydi. Hikoya aynan mazmun uzviyligi orqali oddiy dalillar va ma'lumotlar ketma-ketligidan farq qiladi, ya'ni voqealar mantiqan o'zaro bog'lanib, umumiy semantik maydonni hosil qiladi.

Didaktik drama pedagogik texnologiya sifatida ta'lim jarayonida sahnalashtirish, rolli o'yinlar va dramatik vaziyatlar orqali bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishga qaratilgan. J. Heathcote va D. Bolton kabi olimlar didaktik dramani shaxsga yo'naltirilgan ta'limning samarali vositasi sifatida talqin etib, uning tanqidiy fikrlash, muloqot va hamkorlik kompetensiyalarini rivojlantirishdagi rolini asoslab berganlar.

Mahalliy tadqiqotchilar (R. H. Jo'rayev, N. A. Muslimov va boshqalar) didaktik dramani kasbiy ta'limda real ish faoliyatiga yaqin pedagogik vaziyatlarni modellashtirish vositasi sifatida baholaydilar. Ularning fikriga ko'ra, dramatik vaziyatlar orqali talabalar kasbiy qaror qabul qilish, mas'uliyatni his etish va refleksiya qilish ko'nikmalarini egallaydilar.

Narrativ yondashuv shaxsning tajribasi, bilimlari va qadriyatlarini hikoya (narrativ) orqali ifodalashga asoslanadi. J. Bruner ta'kidlaganidek, inson dunyoni hikoyalar orqali anglaydi va o'z tajribasini narrativ shaklda tizimlashtiradi. Ta'lim jarayonida narrativ yondashuv o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy tajribasini o'rganilayotgan mazmun bilan bog'lash imkonini beradi.

Pedagogik adabiyotlarda narrativ yondashuv refleksiv fikrlashni rivojlantiruvchi, o'rganilgan bilimlarni shaxsiy ma'noga ega tajribaga aylantiruvchi usul sifatida talqin etiladi. Ayniqsa, kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuv talabalarning kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, narrativ yondashuv ta'lim oluvchilarning bilimlarni eslab qolishi va tushunishini yengillashtiradi, chunki hikoya shaklidagi ma'lumot miyada yaxlit kontekst hamda sabab–oqibat zanjiri asosida mustahkamroq saqlanadi. Narrativ yondashuv talabalarning refleksiv fikrlashini, ya'ni o'z tajribasi va xatti-harakatlarini tahlil qila olish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bu jarayon orqali talabalarda o'z hissiyotlarini anglash, boshqalar his-tuyg'ulariga hamdardlik qilish (empatiya) kabi qobiliyatlar shakllanadi. Hikoya qilish va eshitish jarayoni talabalarda boshqalar kechinmalariga hamdard bo'lish, o'z his-tuyg'ularini ifodalash hamda jamoada emosional muhitni yaxshilashga xizmat qiluvchi ko'nikmalarni rivojlantiradi.

"Hikoya" (narrative) tushunchasi ijtimoiy-gumanitar fanlarda, xususan, psixologiya, falsafa, lingvistika va pedagogikada markaziy kategoriyalardan biri sifatida qaraladi. Hikoya insonning voqelikni idrok etishi, uni mazmunli tarzda tartibga solishi va tushuntirishi uchun xizmat qiluvchi semantik konstruksiya sifatida ta'riflanadi. Ilmiy manbalarda hikoya faqat voqealar ketma-ketligi emas, balki vaqt, sabab–oqibat munosabatlari, subyektiv talqin va ma'no yaratish jarayonlarini o'z ichiga olgan murakkab kognitiv-diskursiv birlik sifatida talqin etiladi.

Hikoya tushunchasining ilmiy asoslari strukturalizm (tuzilmaviy yondashuv), fenomenologiya (fenomenni o'rganish) va kognitiv psixologiya (idrok psixologiyasi)ga borib taqaladi. Strukturalistlar, xususan, R. Bart hikoyani barcha madaniyatlar va diskurs turlariga xos bo'lgan universal tuzilma sifatida ta'riflaydi.

R. Bartesning fikricha, hikoya barcha madaniyatlarda mavjud bo'lib, u xalq og'zaki ijodidan tortib turli ijtimoiy va madaniy jarayonlarda namoyon bo'ladi. Uning ta'kidlashicha, hikoya tilning alohida shakli emas, balki inson tafakkurining universal kategoriyasidir. Fenomenologik yondashuvda esa hikoya insonning vaqtni his etish shakli sifatida talqin qilinadi.

P. Rikyor insonning ijtimoiy tajribasi vaqtning o'tishi bilan emas, balki uni hikoyaga aylantirish orqali anglanishini ta'kidlaydi. Hikoya vaqtning tartibsiz oqimini "ekspozitsiya, rivoj, kulminatsiya, yakun" kabi ma'noli tuzilishga soladi va mavjudlikni tushunishga xizmat qiladi. P. Rikyor hikoyani "insoniy vaqtni anglashning vositasi" sifatida ta'riflaydi.

Psixologik nuqtai nazardan, drama metodlari talabaning hissiy-intellektual faoliyatini faollashtiradi, uning o'zini ifodalash, ijtimoiy rol ijro etish va qaror qabul qilish jarayonlarida mustaqil bo'lishiga yordam beradi. Ushbu jarayonda shaxsning kreativ tafakkuri, empatiya qobiliyati hamda ijtimoiy kompetensiyalari uyg'un holda rivojlanadi.

Dramada inson qalbining tovlanishlari, hissiyotlarning jilvalanishi, so'z va harakat uyg'unligi mujassam bo'ladi. Didaktik drama esa ushbu badiiy qudratni ta'lim jarayoniga olib kiradi.

Ilmiy manbalarda didaktik drama va narrativ yondashuv integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshiruvchi omil sifatida e'tirof etiladi. Dramatik jarayon davomida yaratiladigan hikoyaviy vaziyatlar talabalarga kasbiy faoliyatga oid muammolarni narrativ asosda anglash va tahlil qilish imkonini beradi. Bu esa kommunikativ, ijtimoiy hamda muammoli vaziyatlarni hal etish kompetensiyalarining kompleks rivojlanishiga olib keladi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda didaktik drama asosida kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda narrativ yondashuvning pedagogik imkoniyatlarini aniqlash maqsadida quyidagi metodlardan foydalaniladi.

**Nazariy tadqiqot metodlari:**

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish – didaktik drama, narrativ yondashuv va kasbiy kompetensiyalar bo'yicha mavjud ilmiy qarashlarni o'rganish;
- taqqoslash va umumlashtirish – turli mualliflar yondashuvlarini qiyosiy tahlil qilish;
- tizimlashtirish – asosiy tushunchalarni mantiqiy tizimga solish.

**Empirik tadqiqot metodlari:**

- kuzatish – didaktik drama asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda talabalarning faolligi va ishtirokini tahlil qilish;
- suhbat va so'rovnoma – talabalarning narrativ faoliyatga bo'lgan munosabatini aniqlash;

- pedagogik tajriba-sinov – didaktik drama va narrativ yondashuv asosida ishlab chiqilgan mashg'ulotlar samaradorligini tekshirish.

**Natijalarni tahlil qilish metodlari:**

- sifat tahlili – talabalarning narrativ chiqishlari va refleksiyalarini o'rganish;
- statistik tahlil elementlari – tajriba natijalarini umumlashtirish va xulosalar chiqarish.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalarda qayd etilishicha, L. S. Vygotskiy san'at va drama jarayonini shaxsning intellektual rivojlanishida muhim omil sifatida ta'kidlaydi. Uning fikricha, dramatik ifoda insonning ichki dunyosini uyg'otadi, hissiyotlarini boyitadi va ongida mustahkam iz qoldiradi.

Talabalar ham ushbu fikrni quyidagicha ifodalaydilar: "Men o'zim ham bu fikrni tasdiqlay olaman: auditoriyada sahnalashtirilgan oddiygina bir epizod ko'nglimda uzoq vaqt saqlanib qoladi, hatto ma'ruzalardan ko'ra ko'proq ta'sir ko'rsatadi".

John Dewey ta'limni "tajriba asosidagi jarayon" sifatida talqin etadi. Uning qarashlariga ko'ra, talaba faqat faol ishtirok orqali bilimni o'zlashtiradi va uni shaxsiy hayotiy tajribasi bilan uyg'unlashtira oladi. Ushbu nuqtai nazardan qaraganda, drama metodining eng katta ustunligi shundaki, u talabani faqat "kitobiy bilim oluvchi" emas, balki hayotiy vaziyatlarni mustaqil hal qila oluvchi shaxs sifatida shakllantiradi.

D. Bolton esa "Drama as Education" asarida drama vositasida shaxsning kreativ tafakkuri va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish mumkinligini asoslab beradi.

O'rganilgan ilmiy manbalarda ham shaxsiy ijodkorlik va noan'anaviy metodlarning o'qituvchi faoliyatidagi ahamiyati alohida ta'kidlanadi. Aynan shu kabi yondashuvlar talabalarning qiziqishini uyg'otadi va ularni kelajakdagi kasbiy faoliyatiga yanada mas'uliyat bilan yondashishga undaydi. Chunki oddiy ma'ruza tinglash orqali o'zlashtirilgan bilim bilan dramatik jarayon orqali his etilgan tajriba o'rtasida sezilarli farq mavjud bo'lib, drama talaba uchun o'ziga xos hayotiy mashq vazifasini bajaradi.

### Didaktik drama va narrativ yondashuv o'rtasidagi uzviylik

Didaktik drama talabaning kasbiy vaziyatlarni hikoya shaklida tajribadan o'tkazishiga imkon yaratadi. Narrativ yondashuv esa ushbu jarayonni nazariy asos bilan ta'minlaydi. Shu sababli didaktik drama va narrativ metodlarning integratsiyasi talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Narrativ yondashuv talabaning shaxsiy va kasbiy tajribasini anglash, uni qayta qurish hamda refleksiv tahlil qilishga xizmat qiladi. Didaktik drama bilan uyg'un holda qo'llanilganda, ushbu yondashuv talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, kasbiy identifikatsiya va refleksiv fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi. Oliy ta'lim o'qituvchisi uchun narrativ yondashuv ta'lim jarayonini interaktiv, amaliy va shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil etishning samarali nazariy hamda amaliy poydevorini tashkil etadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**
1. Muslimov N. A. Kasbiy ta'lim metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2017. – 312 b.
2. Jo'rayev R. H. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: O'qituvchi, 2015. – 280 b.
3. Azizxo'jayeva N. N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent: TDPU, 2018. – 220 b.
4. Klarin M. V. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – M.: Pedagogika, 2016. – 304 s.
5. Polat E. S. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – M.: Akademiya, 2015. – 272 s.
6. Dewey J. Experience and Education. – New York: Macmillan, 1938. – 116 p.
7. Abduqodirov A. A. Kasbiy kompetensiyani shakllantirish nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Innovatsiya, 2020. – 198 b.
8. Xodjayev B. X. Ta'limda kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent: Fan, 2019. – 164 b.
9. Savenkova L. G. Drama texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. – M.: Pedagogika, 2017. – 186 s.

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov
**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov
**Musahhih:** Alibek Zokirov
**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №1**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.